
Methodological Foundations and Effectiveness of the CLIL (Content and Language Integrated Learning) Approach in Teaching English Based on Cultural Content within Tourism Education

Shodiyeva Nilufar Olim qizi

lilyshadieva@gmail.com

Doctoral researcher,

Uzbekistan State World Languages University

Annotation

This article analyzes the methodological foundations and effectiveness of teaching based on CLIL (Content and Language Integrated Learning), which is considered one of the modern educational approaches in the rapidly developing field of tourism. The article presents the main approach of the research work, including CLIL and its theoretical foundations, practical application experiences, and experimental analyses. Students do not learn the language separately; instead, the language learning process occurs naturally and effectively. Learners begin to use the language in practice and develop communicative competencies. Greater emphasis is placed only when encountering complex grammatical structures or language elements. The relevance of this methodology for the tourism sector and its effectiveness in developing cultural competencies are also highlighted. Topics and discussions organized within the framework of cultural content enhance students' ability to exchange ideas, justify their viewpoints, and think freely, thereby improving their social and communicative skills. Furthermore, it is emphasized that through the CLIL approach in teaching English based on cultural content, students learn the language naturally and meaningfully, increase their motivation, develop intercultural competence, and strengthen communicative skills.

Keywords

Tourism, CLIL, English language, cultural content, integration, communicative competence

Turizm ta'limi jarayonida madaniy kontent asosida ingliz tilini o'qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvining metodik asoslari va samaradorligi

Shodiyeva Nilufar Olim qizi

lilyshadieva@gmail.com

Tayanch doktorant,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kundagi jadal rivojlanib kelayotgan sohalardan biri hisoblangan turizmga zamonaviy ta'lim yondashuvlaridan biri sanalgan CLIL (Content and Language Integrated Learning) ya'ni mazmun va tilni integratsiyalashgan o'qitish yondashuvi asosida o'qitishning metodik asoslari hamda samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada tadqiqot ishining asosiy yondashuvi CLIL va uning nazariy asoslari, amaliy qo'llash tajribalari va eksperimental tahlillari keltirilib o'tilgan. Talabalar tilni alohida o'rganmaydi va til o'rganish jarayoni tabiiy va samarali kechadi, talaba tilni amalda qo'llay olishni boshlaydi, kommunikativ

kompetensiyalarni rivojlantiradi, qandaydir murakkab grammatik jarayonlar yoki til unsurlariga duch kelingandagina, ko'proq urg'u bilan to'xtalishi mumkin. Ushbu metodika turizm sohasi uchun dolzarb va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligi ochib berilgan. Madaniyatga oid mavzular doirasida tashkil etiladigan darslar, suhbatlar talabalar orasida o'zaro fikr almashinish, o'z nuqtai nazarini asoslay olish va erkin fikrlay olish qobiliyatlarini ijtimoiy va kommunikativ jihatidan oshirishi shuningdek, madaniy kontent asosida ingliz tilini o'qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi orqali talabalar tilni tabiiy va mazmunli o'rganishi, motivatsiyasini oshirishi, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishi va kommunikativ ko'nikmalarni kuchaytirishi yoritilgan.

Kalit so'zlar Turizm, CLIL, ingliz tili, madaniy kontent, integratsiya, kommunikativ kompetensiya

**Методические основы и
эффективность подхода CLIL
(Content and Language Integrated
Learning) в обучении
английскому языку на основе
культурного контента в процессе
туристического образования**

Шодиева Нилуфар Олим кизи

lilyshadieva@gmail.com

Докторант,

Узбекский государственный университет

мировых языков

Аннотация В данной статье анализируются методические основы и эффективность обучения на основе CLIL (Content and Language Integrated Learning), который считается одним из современных образовательных подходов в стремительно развивающейся сфере туризма. В статье представлены основные подходы исследования, включая CLIL и его теоретические основы, опыт практического применения и результаты экспериментального анализа. Студенты не изучают язык изолированно, процесс овладения языком проходит естественно и эффективно. Обучающиеся начинают применять язык на практике и развивают коммуникативные компетенции. Особое внимание уделяется только в случаях столкновения со сложными грамматическими конструкциями или языковыми элементами. Актуальность данной методики для сферы туризма и её эффективность в развитии культурных компетенций также раскрываются. Темы и обсуждения, организованные в рамках культурного контента, способствуют обмену мнениями между студентами, умению обосновывать свою точку зрения и свободно мыслить, что повышает их социальные и коммуникативные навыки. Кроме того, подчеркивается, что при обучении английскому языку на основе культурного контента с использованием подхода CLIL студенты осваивают язык естественно и осмысленно, повышают мотивацию, развивают межкультурную компетенцию и усиливают коммуникативные навыки.

Ключевые слова Туризм, CLIL, английский язык, культурный контент, интеграция, коммуникативная компетенция

Kirish

Bugungi globallashtirish davrida chet tillarini o'qitish ta'lim jarayonida jadal o'sib bormoqda, yurtimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar aynan chet tillarini o'qitishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaygani sababli yildan yilga yangi, zamonaviy yondashuvlar, texnologiyalar kirib kelmoqda. Ingliz tili faqatgina fan emas, balki boshqa fanlar bilan integratsiyani amalga oshirishda asosiy strategik manba sifatida ham qaraladi. Turizm sohasida esa til o'rganish bu shunchaki qo'shimcha mahorat emas, aynan shu turizm sohasi vakillarining asosiy kasbiy kompetensiyalaridan biri sanaladi. CLIL (Content and Language Integrated Learning) ya'ni mazmun va tilni birgalikda uyg'unlashtirgan holda o'qitish yondashuvi bo'lib, bu yondashuvda yuqori samaradorlik shundaki, talabalarining til kompetensiyalarini real kontekstda rivojlantirishga yordam beradi. CLIL yondashuvida chet tilini alohida fan sifatida o'rganilmaydi, asosiy rakurs boshqa fanlarni o'qitish vositasi sifatida qaraladi. Madaniy kontent asosida ingliz tilini o'qitish orqali talabalar tilni tabiiy va mazmunli o'rganishi, motivatsiyasini oshirishi, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishi va kommunikativ ko'nikmalarni kuchaytirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va Metodlar

Ushbu yondashuv mazmun va tilni birgalikda o'rganishga yordam beradi. Coyle, Hood va Marsh (2010) tomonidan ta'kidlanganidek, mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) – bu ikki yo'nalishga qaratilgan ta'lim yondashuvi bo'lib, unda qo'shimcha til mazmunni ham, tilning o'zini ham o'rganish va o'qitish vositasi sifatida qo'llaniladi. Ya'ni ta'lim jarayonida e'tibor faqat mazmunga yoki tilga qaratilmaydi.

Ikkalasi ham o'zaro chambarchas bog'langan bo'ladi, garchi ma'lum bir vaqtda ulardan biriga ko'proq urg'u berilishi mumkin bo'lsa ham. CLIL til ta'limining yangi shakli emas. U fan ta'limining ham yangi turi emas. Aksincha, u ikkalasining innovatsion uyg'unlashuvidir. Ya'ni bunda CLIL aynan bitta predmetga qaratilgan ta'lim yo'nalishi emas balki, bunda tilni ham o'rganish muhimligini, til bu yondashuvda ikkinchi darajali o'qitish vositasi tarzida saqlanib qolmasligini ko'rishimiz mumkin. Ta'lim jarayonida ayrim hollarda fan yoki tildan biriga ko'proq to'xtalishi mumkin, ammo fan yoki til ikkalasi ham uyg'unlashgan holda o'qitiladi.

Maria Pilar Augustin Lianch (2015) o'zining maqolasida shunday deydi, CLIL aslida chet tilini o'qitish usuli emas, balki umumiy yondashuv bo'lib, unda chet tili mazmunni yetkazish vositasi sifatida ishlatiladi va yangi yoki murakkab til elementlariga zarur paytda e'tibor qaratiladi. Natijada, chet tili kompetensiyasi mazmunli kontekstda qo'llanilishi tufayli rivojlanadi. Ya'ni muallif bunda, CLIL oddiy o'qitish metodi emasligini ta'kidlaydi, masalan, biror bir chet tilini o'rgatishda asosiy e'tibor til qoidalariga yoki so'z boyligiga qaratilib o'qitiladi. Lekin, CLIL yondashuvida esa beriladigan asosiy e'tibor bu – fan (mazmun) bo'lib, chet tili aynan shu fanni, bilimni yetkazadigan vositaga aylanadi. Talabalar tilni alohida o'rganmaydi va til o'rganish jarayoni tabiiy va samarali kechadi, talaba tilni amalda qo'llay olishni boshlaydi, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi, qandaydir murakkab grammatik jarayonlar yoki til unsurlariga duch kelingandagina, ko'proq urg'u bilan to'xtalishi mumkin.

Peter Mehisto, David Marsh, Maria Jesus Frigols (2008) quyidagicha fikr bildiradi, CLIL (Content and Language Integrated Learning –

mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish) atamasi 1994-yilda Yevropada paydo bo'lgan. Biroq, CLIL amaliyoti ancha qadimgi tarixga ega. CLIL ga o'xshash dasturlarning eng qadimgi namunasi taxminan 5000 yil avval, hozirgi Iroq hududida kuzatilgan. Akkadlar Shumerlarni bosib olgandan so'ng, ular mahalliy tilni o'rganishni xohlagan. Shu maqsadda shumer tili o'qitish tili vositasi sifatida ishlatilgan va u orqali ilohiyot, botanika hamda zoologiya kabi fanlar o'rgatilgan. Tarixda ikkinchi til orqali fanni o'qitishning yana bir misoli – lotin tilining keng qo'llanishidir. Muallifning fikridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, CLIL bu – yangi nom bilan shakllangan bo'lsada, aslida qadimdan mavjud bo'lib kelgan, shu bilan birgalikda u, til va mazmunni uyg'unlashtirish orqali unumli o'qitishni ta'minlaydigan pedagogik yondashuv demakdir. Masalan, muallif bergan lotin tili haqidagi fikrlarga to'xtalsak, CLIL va chet tilida o'qitish o'rtasidagi farqni shunday ko'rsatadi, Lotin tili fanni o'qitish maqsadida foydalanilgan lekin, lotin tili mahalliy tillarni rivojlantirmagan. Tilni rivojlantirish, fanlarni o'zlashtirishga esa aynan CLIL xizmat qilgan.

Bower (2020) ta'kidlashicha, tilni o'rganish vositasi sifatida qo'llash bilan birga aniq aniq tillardagi lingvistik kompetensiyani rivojlantirish ko'p tilli sinflarda til va ijtimoiy-iqtisodiy chegaralarni qanday yengib o'tish mumkinligini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu esa ayrimlar uchun bahsli bo'lgan masalalarni ko'taradi: tilning o'rganish resursi sifatidagi roli (jumladan, translanguaging va til orqali o'rganish), grammatikaning o'rnini savodxonlik talablari. Mualliflari bu borada ochiq muhokama va tadqiqotlarni davom ettirishni tavsiya etadilar. CLIL yondashuvida talabalarga qanday qilib tilni o'rgatish masalasida haligacha yechim yo'q bo'lib ushbu mavzu muhokama va tadqiqotlarni talab qiladi. CLIL yondashuvining nazariy asosini Do Coyle taklif etgan 4C modelida ko'rishimiz mumkin. Bu model bir biriga o'zaro bog'liq bo'lgan to'rtta komponentni o'z ichiga oladi, ular quyidagilar: content, communication,

cognition, culture. O'zbekiston sharoitida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan "culture" ya'ni "madaniyat" komponenti bo'lib, bu o'rganilayotgan til mamlakatlarining madaniyati bilan birgalikda o'z milliy madaniy identifikatsiyani anglash va tahlil qilishga ham e'tibor qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Seelye (1974) ta'kidlashicha, madaniyatlararo muloqot strategiyalari muhim. Maqsadlilik tamoyili madaniy kontentni o'qitishda zarur chunki, talim jarayonida har bir o'quv faoliyati aniq bir didaktik vazifalarga yo'naltirilishi zarur. Madaniyatni o'rganish faktlarni yodlash bilan cheklanib qolmaydi, aksincha kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi mazmun bilan til integratsiyasi orqali maqsadga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi. Talabalar ushbu jarayonda ijtimoiy va psixologik omillarning xulq-atvoriga ta'siri qanday ekanligini anglashadi, madaniy meyorlar haqida tahlil qilishadi, til birliklarining madaniy xususiyatlarini idrok etishadi va axborotni izlash, tanqidiy baholash va tizimlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishadi. Richards (2018) ta'kidlaganidek, madaniy turizm shunchaki yagona bozor emas, balki u tasodifiy madaniy uchrashuvlardan tortib, madaniy afzalliklarga asoslangan maqsadli qaror qabul qilishgacha bo'lgan jaryonni o'z ichiga oladi (Richards, 2007). Shuni hisobga olgan holda, turizm ta'limida CLIL yondashuvini qo'llash talabalarga sayyohlarning ushbu maqsadli ehtiyojlarini qondira oladigan chuqur madaniy va lingvistik bilimlarni berishi bilan ahamiyatlidir.

Natijalar

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm ta'limi jarayonida madaniy kontent asosida ingliz tilini o'qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ta'lim jarayonida talabalarni faollashtirish ularning qiziqish va

ehtiyojlarini markazga qo'yish orqali chuqur va mazmunli o'rganishi ta'minlanadi. Bir qancha yo'nalishlarda CLIL yondashuvini qo'llash bo'yicha natijalar namoyon bo'lishi aniqlangan. Lingvistik natijalar tomonidan qaraydigan bo'lsak, bu yondashuv talabalarining til ko'nikmalarini takomillashtira oladi. Talabalar kundalik muloqot turi bilan bir vaqtning o'zida akademik til ko'nikmalarini egallashadi. Bu jarayon talabalarga fanlarga oid maxsus so'zlarni, tushunchalarni chet tilida o'rganish va uni qo'llay olish imkonini beradi. Qolaversa, bu jarayon davomida talabaning terminologik birliklarni bilishi va so'z boyligi oshishiga yordam beradi. Ushbu muhit ularga nutqiy ravonlik oshishi, muloqotda xatolardan qo'rqmaligi kamayadi. CLILning muhim natijalaridan yana biri, madaniyatlararo kompetensiya shakllanishidir. Talabalar boshqa madaniyatlar bilan tanishish jarayonida, o'sha xalqlarning urf-odatlarini, milliy

liboslari, o'ziga xos bo'lgan qadriyatlari va dunyoqarashiga nisbatan hurmat va bag'rikenglikni o'zlarida shakllantiradilar. Ushbu darslarda talabalar tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish kabi yuqori darajada fikrlash ko'nikmalarini kognitiv jihatidan rivojlantiradilar. Ular turli madaniyatlarni o'zaro tahlil qilishadi, o'rtasidagi farqlarni taqqoslashadi so'ng umumlashtiruvchi tomonlarini aniqlashadi. Qolaversa, madaniy materiallar masalan, real hayotiy voqea va misollar, an'analar, kundalik hayotga doir mavzular ular uchun qiziqarli bo'lib darsga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga ya'ni motivatsiyaning oshishiga sabab bo'ladi. Madaniyatga oid mavzular doirasida tashkil etiladigan mavzular, suhbatlar talabalar orasida o'zaro fikr almashinish, o'z nuqtai nazarini asoslay olish va erkin fikrlay olish qobiliyatlarini ijtimoiy va kommunikativ jihatidan oshirishi mumkin.

Yo'nalish (Sohalar)	Erishiladigan natijalar va ko'nikmalar	Amaliy ahamiyati (Natija ifodasi)
Lingvistik natijalar	Akademik va kundalik muloqot integratsiyasi; Sohaviy terminologiyani o'zlashtirish; So'z boyligining kengayishi.	Nutqiy ravonlikning ortishi va chet tilida muloqot qilishdagi psixologik to'siqlarning kamayishi.
Madaniyatlararo kompetensiya	O'zga xalqlar urf-odatlarini va qadriyatlarini o'rganish; Milliy liboslar va dunyoqarashlar tahlili.	Talabalarda bag'rikenglik va boshqa madaniyatlarga nisbatan hurmat hissining shakllanishi.
Kognitiv rivojlanish	Yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalari (HOTS); Tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish.	Turli madaniyatlarni o'zaro solishtirish orqali mantiqiy xulosalarni chiqarish qobiliyatining shakllanishi.
Affektiv (Motivatsion) soha	Real hayotiy voqea va misollarga asoslanish; Madaniy va an'anaviy mavzularga qiziqish.	Dars jarayoniga bo'lgan ichki motivatsiyaning ortishi va o'quv materialining qiziqarli ko'rinishga kelishi.
Ijtimoiy-kommunikativ	O'z nuqtai nazarini asoslash; Erkin fikr almashish muhiti.	Talabalar o'rtasida jamoaviy ishlash va o'zaro ijtimoiy muloqot madaniyatining yuksalishi.

1-jadval. Turizm ta'limida madaniy kontentga asoslangan CLIL yondashuvining samaradorlik ko'rsatkichlari

Muhokama

Tahlil qilingan natijalar shuni ko'rsatadiki, turizm yo'nalishi talabalari uchun CLIL yondashuvini aynan madaniy kontent bilan uyg'unlashtirish an'anaviy metodlarga qaraganda bir qancha afzalliklarni o'z ichiga oladi. Lingvistik natijalardagi ijobiy o'zgarishlar talabalarning faqatgina grammatik qoidalarni yodlash bilan cheklanmaslikni va tilni kasbiy muloqot sifatida qabul qila boshlashlarini ko'rsatadi. Richardsning (2007) madaniy turizm haqidagi qarashlarini tadqiqot davomida aniqlangan kognitiv rivojlanish jarayonida o'z tasdig'ini topadi. Madaniy turizmni Richards shunchaki tasodifiy uchrashuv emas bunda maqsadli qaror qabul qilish jarayoni deb ifodalaydi. Talabalar bizning ushbu tadqiqotimizda madaniy materiallarni tahlil qilish va taqqoslash orqali aynan shu "maqsadli" tushunish darajasiga ko'tarilishini anglash shuningdek, talabalarda til va yuqori darajadagi tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi mumkin. Bu jarayonda madaniyatlararo kompetensiyaning ortishi alohida bir e'tiborga sazovor deb qaraladi chunki, milliy qadriyatlarni ingliz tilida taqdim etish jarayonida "o'zlikni anglash", milliylik, qadriyatlarni tushunish, vatanga bo'lgan muhabbat hislari yanada kuchayadi. Yuqoridagi so'zlarimizni tasdig'i sifatida esa, Do Coyle (2010) tomonidan ilgari surilgan CLIL yondashuvining nazariy asosi sifatida keltirilgan 4C modelining Culture ya'ni madaniyat komponentining amaliy isbotidir. Ammo, Richards ta'kidlaganidek madaniy turizm bozorining murakkabligi va uning doimiy o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak, talabalardan doimiy ravishda o'z bilimlarini yangilab turishlari, o'z kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirib borishlarini

talab etadi. CLIL yonashuviga asoslangan darslarda real hayotiy keyslardan foydalanish talabalarni mehnat bozoridagi raqobatga tayyorlashda eng samarali vosita hisoblanadi, chunki talabalar nazariyotni amaliyotda qo'llay olish imkoniga ega bo'ladilar.

Xulosa

Yuqoridagi adabiyot tahlillari CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvining turizm ta'limida ingliz tilini o'qitishda samarali va innovatsion pedagogik yechim sifatida namoyon bo'lishini ifodalab bermoqda. Til va mazmunning integratsiyasini ta'minlab beruvchi yondashuv orqali talabalar lingvistik bilimlarni va kasbiy madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantiradilar. Talabalar tilni alohida o'rganishmaydi, CLIL asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida ular tilni real kontekstda qo'llash orqali uni tabiiy ravishda egallaydilar. Talabalarning o'quv jarayoniga madaniy kontentning qo'llanishi ularning fanga va tilga bo'lgan qiziqishini oshirishga, tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga, tahlil qilish va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Turizm yo'nalishida faoliyat olib boradigan mutaxassislar yuqori darajadagi til va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalariga ega bo'lishi muhim bo'lgani uchun yuqoridagi ko'nikmalar ahamiyatli sanaladi. CLIL yondashuvi to'g'risidagi fikr va mulohazalarimizni xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu yondashuv turizm ta'limida til o'rganish samaradorligini oshiradi, talabalarni global muhitda unumli faoliyat yurita oladigan, madaniy jihatidan sezgir va raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni yanada chuqur o'rganish, tadqiqot ishlarini olib borish va amaliyotga keng joriy etish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

References:

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge University Press, 188.

2. Agustín Llach, M. P. (2015). The effects of the CLIL approach in young foreign language learners' lexical profiles. *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, 18.
3. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. (2008). *Uncovering CLIL: Content and language integrated learning in bilingual and multilingual education*. Macmillan Education, 121.
4. Bower, K. (2020). *CLIL and multilingual education: Rethinking language and learning*. Cambridge University Press, 225, 5-21.
5. Seelye, H. N. (1974). *Teaching culture: Strategies for intercultural communication*. National Textbook Company, 324, 48-59.
6. Richards, G. (2007). *Cultural tourism: Global and local perspectives*. Haworth Hospitality Press, 384, 25-33.
7. Richards, G. (2018). Cultural tourism: A review of recent research and trends. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 36, 12–21.